

MALAKALI KADRLARNI TAYYORLASHDA - PEDAGOGIK ERUDITSIYA MUHIM OMIL SIFATIDA

Andijon davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya kafedrası o‘qituvchisi
Yoqubaliyeva Dilafro‘z Payzidin qizi
Logopediya yo‘nalishi talabalari
Xomitova Feruza Ravshanbek qizi
Xudoyberdiyeva Muhayyo Alisher qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19457382>

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik eruditsiyaning mazmuni, uning ta’lim jarayonidagi ahamiyati hamda yuqori malakali kadrlar tayyorlashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim tizimida pedagogning bilim doirasi kengligi, kasbiy mahorati va pedagogik eruditsiyasi ta’lim sifati hamda kelajak mutaxassislarini tayyorlashda muhim omil ekanligi yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: pedagogik eruditsiya, pedagogik mahorat, ta’lim sifati, professional kompetensiya, yuqori malakali kadrlar.

Abstract: Three articles analyze the content of pedagogical erudition, its importance in the educational process and its role in the training of highly qualified personnel. Determining the scope of knowledge of a teacher in education, identifying important factors in the quality of education and the training of future specialists, including professional skills and pedagogical erudition.

Keywords: pedagogical erudition, pedagogical skills, quality of education, professional competence, highly qualified personnel.

Аннотация: В данной статье анализируется содержание педагогической эрудиции, её значение в образовательном процессе и роль в подготовке высококвалифицированных кадров. Подчеркивается, что в современной системе образования широта знаний, профессиональные навыки и педагогическая эрудиция преподавателя являются важными факторами качества образования и подготовки будущих специалистов.

Ключевые слова: педагогическая эрудиция, педагогические навыки, качество образования, профессиональная компетентность, высококвалифицированный персонал.

Bugungi kunda ta’lim sifati oshirish va malakali kadrlarni tayyorlash har bir davlatning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda bu borada katta e’tibor qaratilib, 2030-yilgacha bo‘lgan strategik rejalarda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va pedagoglarning malakasini oshirish muhim o‘rin tutmoqda. 2023-yilgi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakat bo‘ylab faoliyat yuritayotgan 450 mingdan ortiq pedagoglarning faqat 35% zamonaviy texnologiyalarni to‘liq o‘zlashtirgan. Shu sababli pedagoglar malakasini oshirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu orqali malakali kadrlarni tayyorlash jarayonini yangi bosqichga olib chiqish mumkin[1,126-b].

Dastlab pedagogik eruditsiya - bu o‘qituvchining chuqur bilimdonligi, dunyoqarashi kengligi va kasbiy mahorati bo‘lib, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda asosiy omil hisoblanadi. U o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantiradi, fanga qiziqishni oshiradi va ta’lim sifati oshirish orqali raqobatbardosh mutaxassislarni yetishtirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarini tayyorlashda pedagogik eruditsiyaning o‘rni juda muhimligi barchaga ayon[4,139-b]. Yuqori malakali kadrlar tayyorlashdagi o‘rni: Kasbiy kompetensiyani oshirish: Erudit o‘qituvchi o‘z fanining nazariy va amaliy asoslarini chuqur biladi, bu esa talabalarga zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni yetkazib berish sifati oshiradi.

Bilimlararo yondashuv (Interdissiplinarlik): Pedagog o‘z fanini boshqa sohalar bilan bog‘lab o‘rgatish orqali talabalarda keng dunyoqarash va kompleks fikrlash qobiliyatini shakllantiradi[5,196-b].

Ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: Keng bilimga ega pedagog talabalarni qoliplardan chiqishga, muammolarga kreativ yechim topishga va mustaqil tahlil qilishga o‘rgatadi.

Motivatsiya va ilhomlantirish: Erudit o‘qituvchi o‘zining hayotiy tajribasi va keng dunyoqarashi bilan talabalarni ilm-fanga va kasbga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularda motivatsiya uyg‘otadi.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llash: Yuqori eruditsiyaga ega pedagog innovatsion metodlar va raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llay oladi, bu esa ta’lim jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

Pedagogik eruditsiya yuqori malakali bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘qituvchining fundamental bilimi, dunyoqarashi va kasbiy mahoratining uyg‘unligi sifatida hal qiluvchi omil hisoblanadi[6,112-b]. U o‘qituvchiga nafaqat o‘z fanini chuqur o‘rgatish, balki talabalarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, ta’lim sifatini oshirish va raqobatbardosh mutaxassislarni tarbiyalash imkonini beradi.

Malakali kadrlar tayyorlashda pedagoglarning malakasini oshirish ta’lim tizimini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Pedagoglar o‘z bilim va ko‘nikmalarini muntazam ravishda yangilab borishi orqali ta’lim sifatini oshirish, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish va talabalarni zamonaviy bilim bilan ta’minlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu jarayon, o‘z navbatida, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga sezilarli hissa qo‘shadi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik eruditsiya ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Keng bilimga ega, kasbiy mahorati yuqori pedagoglar jamiyat uchun raqobatbardosh va yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun pedagoglarning eruditsiyasini rivojlantirish ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lishi kerak. Shunday ekan, bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarini kasbiy-metodik rivojlantirishda pedagogik eruditsiyaning nechog‘lik ahamiyatli ekanligini bilib olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Niyozov R. “Pedagogika nazariyasi va amaliyoti” Oliy ta’lim nashrlari, Toshkent. 2020.
2. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, Toshkent. 2016
3. Yoqubaliyeva D. (2023). preparation for the organization of scientific research works in students of pedagogical higher education institutions. Science and innovation, 2 (B12), 447- 452.
4. Yoqubaliyeva D. Z. (2024). Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarini kasbiy metodik rivojlantirish orqali fanni o‘qitishga tayyorlash. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1 (4), 190-192.
5. Yoqubaliyeva D. Z., & Norqobilov, D. (2024). Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarida kreativlik sifatlarini rivojlantirish orqali ularni zamonaviy pedagogik faoliyatga tayyorlash. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(4), 63-65.
6. Yoqubaliyeva Dilafro‘z Payzidin qizi bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarini “tarbiya” fanini o‘qitishga tayyorlashning samarali tamoyillari va omillari "Экономика и социум" №2(129) 2025 www.iupr.ru
7. Yoqubaliyeva Dilafro‘z Payzidin qizi “Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarini kasbiy-metodik rivojlantirishda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish”. Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar 2025-yil 4-son C seriya
8. Yoqubaliyeva Dilafro‘z Payzidin qizi “Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarini kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish”. Sun’iy intellektni

pedagogik ta'limga integratsiya qilish:muammo va yechimlar mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Andijon. 23-25 aprel 2025-yil.

9. Yoqubaliyeva Dilafro‘z Payzidin qizi “Sun‘iy intellekt – bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilari ta’limini modernizatsiya qilish vositasi sifatida” Maktabgacha va maktab ta’limi 2025-yil, iyun, № 6-son.

\